Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda pul oqimlarini boshqarishning xorijiy davlatlar tajribalari hamda ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladigan zamonaviy pul oqimlarini rejalashtirish va nazorat qilish mexanizmlari, likvidlik boshqaruvi, naqd pul oqimlarining diversifikatsiyasi, moliyaviy risklarni kamaytirish bo'yicha ilg'or amaliyotlar o'rganilgan. Shuningdek, xalqaro amaliyotlarni O'zbekiston korxonalarining iqtisodiy va institutsional xususiyatlariga moslashtirish yo'llari, jumladan, raqamli texnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirilgan pul oqimi monitoringi, prognozlash tizimlari va korporativ moliyaviy boshqaruv standartlarini tatbiq etish istiqbollari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari korxonalarning moliyaviy barqarorligini oshirish, kapital aylanishini tezlashtirish hamda investitsiya jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: pul oqimlarini boshqarish, moliyaviy barqarorlik, xalqaro tajriba, likvidlik, moliyaviy risklar, raqamli texnologiyalar, O'zbekiston.

Abstract: This article examines the international experience in cash flow management aimed at ensuring the financial stability of enterprises, as well as the possibilities of its application in the context of Uzbekistan. In particular, it analyzes modern mechanisms for planning and controlling cash flows, managing liquidity, diversifying cash inflows, and reducing financial risks, as implemented in developed countries such as the USA, Germany, Japan, and the Republic of Korea. Special attention is given to adapting international practices to the economic and institutional characteristics of Uzbek enterprises, including the introduction of digital technologies, automated cash flow monitoring, forecasting systems, and corporate financial management standards. The research findings may contribute to strengthening enterprises' financial stability, accelerating capital turnover, and enhancing investment attractiveness.

Key words: cash flow management, financial stability, international experience, liquidity, financial risks, digital technologies, Uzbekistan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются зарубежный опыт управления денежными потоками для обеспечения финансовой устойчивости предприятий, а также возможности его применения в условиях Узбекистана. В частности, анализируются современные механизмы планирования и контроля денежных потоков, управления ликвидностью, диверсификации денежных поступлений и снижения финансовых рисков, используемые в таких развитых странах, как США, Германия, Япония и Республика Корея. Особое внимание уделено вопросам адаптации международной практики к экономическим и институциональным особенностям узбекских предприятий, включая внедрение цифровых технологий, автоматизированного мониторинга денежных потоков, систем прогнозирования и стандартов корпоративного финансового управления. Результаты исследования могут способствовать повышению финансовой устойчивости предприятий, ускорению оборота капитала и укреплению инвестиционной привлекательности.

Ключевые слова: управление денежными потоками, финансовая устойчивость, международный опыт, ликвидность, финансовые риски, цифровые технологии, Узбекистан.



KIRISH

Globalashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda pul oqimlarini samarali boshqarish eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, likvidlikni rejalashtirish, moliyaviy risklarni kamaytirish, pul oqimlarini diversifikatsiya qilish va ularni real vaqt rejimida nazorat qilish mexanizmlari korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Jahon miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlar, xususan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) hisobotlarida korxonalar darajasida likvidlikni boshqarish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan makroprudensial siyosat choralari keng yoritilgan¹. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) esa kapitalni jalb etish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni oshirishda "yashil obligatsiyalar" kabi moliyaviy instrumentlarning ahamiyatiga urg'u bermoqda².

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda moliya sektorini rivojlantirish, xususiyl sektorini qo'llab-quvvatlash, xalqaro standartlarga mos hisob-kitob tizimlarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda moliyaviy infratuzilmani takomillashtirish, valyuta bozorini liberallashtirish va biznes subyektlariga qulay sharoit yaratish yo'lida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilgan³. Bundan tashqari, davlat tomonidan yirik strategik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-iyundagi PQ-308-son qarori bilan 2025–2030-yillar davomida umumiy qiymati 30,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etuvchi davlat-xususiyl sheriklik (DXSh) loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan⁴. Ushbu qaror moliyaviy boshqaruvning zamonaviy usullarini, jumladan, xalqaro pul oqimlarini boshqarish tajribasini mamlakat korxonalarida qo'llash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat moliya sektorining ichki barqarorligini ta'minlashga, balki global iqtisodiy tizim bilan integratsiyani chuqurlashtirishga ham qaratilgan. Bu jarayonda raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirilgan pul oqimi monitoringi, prognozlash tizimlari va korporativ moliyaviy boshqaruv standartlarini keng tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida korxonalar faoliyatida moliyaviy axborot tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi tahlil vositalarini keng joriy etish orqali pul oqimlari ustidan nazoratning aniqligi va tezkorligi oshirilmoqda.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarini boshqarish bo'yicha strategik yondashuvning yetarli emasligi, likvidlik bo'yicha uzoq muddatli rejalarning yo'qligi hamda moliyaviy risklarni erta aniqlash mexanizmlarining to'liq ishlamasligi kabi muammolar mavjud. Shu sababli, xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham zarurdir. Kelgusida korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ni to'liq joriy etish, pul oqimlarini boshqarishning integratsiyalashgan axborot tizimlarini yaratish hamda davlat-xususiyl sheriklik asosida investitsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro standartlar doirasida pul oqimlarini boshqarishning me'yoriyl asosini IFRS (BHXS)dagi IAS 7 "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" belgilaydi. Standart pul oqimlarini operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat bo'yicha tasniflash, foydalanuvchilar uchun naqd oqimlar vaqtini va ishonchligini baholashni ta'minlaydi. Bu yondashuv korxonalarda likvidlikni rejalashtirish va treasury amaliyotlari uchun bazis sifatida xizmat qiladi⁵.

Jensen (1986) "erkin pul oqimi" konsepsiyasida ortiqcha naqd oqimlar agentlik xarajatlarini keltirib chiqarishi, ularni nazorat qilishda qarzi instrumentlari va dividend siyosati muhimligini asoslab beradi. Bu nazariya korporativ boshqaruv, kapital tuzilmasi va pul oqimlari siyosati o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradi⁶. Opler, Pinkowitz, Stulz va Williamson (1999) korporatsiyalarning naqd pulni saqlash determinantlarini empirik tahlil qilib, o'sish imkoniyatlari yuqori va oqimlari xavfli bo'lgan kompaniyalar nisbatan ko'proq naqqlik ushlayishini ko'rsatadi; kapital bozorlariga yaxshi chiqish imkoniyatiga ega yirik firmalar esa kamroq naqd ushlaydi⁷. Almeida, Campello va Weisbach (2004) "cash-flow sensitivity of cash" tushunchasini ilgari surib, moliyaviy cheklovli firmalar ijobiy

1 International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Staff Report. Washington, 2025. <https://www.imf.org>

2 OECD. Financing Uzbekistan's Green Transition. Paris, 2023. <https://www.oecd.org>

3 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Xalqaro hamkorlik faoliyati. https://en.wikipedia.org/wiki/Central_Bank_of_Uzbekistan

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-308-son qarori, 24.06.2025. <https://www.elibrary.imf.org>

5 IFRS Foundation. IAS 7: Statement of Cash Flows (2024).

6 Jensen, M.C. (1986). Agency Costs of Free Cash Flow, Corporate Finance, and Takeovers. *American Economic Review*, 76(2), 323-329.

7 Opler, T., Pinkowitz, L., Stulz, R., & Williamson, R. (1999). The Determinants and Implications of Corporate Cash Holdings. *Journal of Financial Economics*, 52(1), 3-46.



pul oqimlaridan ko'proq naqd jamg'arishga moyilligini isbotlaydi; bu, likvidlik yostig'ini shakllantirish zaruratini va oqimlar bo'yicha ehtiyotkor siyosatni asoslaydi⁸.

Ishchi kapitalni boshqarish bo'yicha tadqiqotlar (Shin & Soenen, 1998; Deloof, 2003) pul konversiya siklini qisqartirish (debitorlar va xazinalar kunini kamaytirish) rentabellikni yaxshilashini ko'rsatadi. Bu natijalar treasury darajasida kesh-forecasting va to'lov-qabul strategiyalarini optimallashtirishga bevosita dalildir⁹. Amaliy qo'llanmalar sifatida Cooper (2004) "Corporate Treasury and Cash Management" asarida likvidlikni boshqarish, pooling/netting, kesh-konsentratsiya, bank aloqalari va ichki nazorat tizimlari bo'yicha amaliy ramka taklif etadi; Brealey-Myers-Allen (2020) esa korporativ moliya tamoyillari doirasida diskontlangan pul oqimlari, kapital qiymati va naqd oqimlar siyosatining integratsiyasini bayon qiladi¹⁰.

I.A. Blankning "Upravlenie denezhnymi potokami" monografiyasi oqimlarni shakllantirish, sinxronlashtirish va balanslashtirish tamoyillarini, kesh-helf (likvidlik yostig'i) me'yorlarini, operatsion va investitsion oqimlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash usullarini tizimli yoritadi¹¹. V.V. Kovalyov, E.S. Stoyanova va boshqa rus maktabi vakillari moliyaviy menejmentda naqd oqimlar tahlilini, ichki nazorat va rejalashtirish mexanizmlarini, shuningdek, pul oqimlari hisobotidan strategik boshqaruv qarorlarida foydalanish metodikasini ishlab chiqqan. Zamonaviy rus tilidagi ilmiy ishlar (masalan, korxonalarda pul mablag'larini samarador foydalanish tahlillari) pul oqimlari rentabelligi ko'rsatkichlari, CFROI va kesh-yaratish koeffitsientlari orqali barqarorlikni baholashni taklif etadi¹².

Milliy adabiyotlarda pul oqimlari hisobotini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish, BHXS (IAS) 7 talablarini amaliyotga tatbiq etish va hisobot shaklini takomillashtirish bo'yicha qator maqolalar e'lon qilingan (Jumayeva, 2023–2024). Normativ asos sifatida 1998-yil 4-noyabrdagi 519-son milliy standartda pul oqimlari hisobotini operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat bo'yicha tasnifi belgilangan; 2020-yil 24-fevraldagi PP-4611-son Prezident qarori esa IFRSga bosqichma-bosqich o'tishni jadallashtirib, korporativ hisobdorlik va shaffoflikni kuchaytirishga xizmat qiladi. So'nggi yillardagi mahalliy tadqiqotlar (Maxmudov va hammualliflar, 2025; turli tahliliy ishlar) pul mablag'lari hisobi va boshqaruvini avtomatlashtirish, prognozlash (forecasting) va treasury jarayonlarini raqamlashtirish zarurligini asoslaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonamiqyosida moliyaviy barqarorlikka erishish uchun uch bosqichli, integratsiyalashgan yondashuv eng samarali hisoblanadi: (i) hisobot intizomi va shaffoflikni kuchaytirish IAS 7 (BHXS) hamda tegishli milliy me'yorlarga to'liq moslashgan holda pul oqimlarini operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat bo'yicha aniq tasniflash, konsolidatsiyalashgan hisobotlarni yo'lga qo'yish, ma'lumotlar sifati va ichki nazoratni mustahkamlash; (ii) operatsion likvidlikni faol boshqarish kesh-forecastingning kunlik/haftalik/oylik gorizontlarda joriy etilishi, likvidlik "yostiqchasi" (buffer) me'yorlarini belgilash va ularni operatsion CF volatilligi, CCC, net debt/EBITDA, interest coverage kabi ko'rsatkichlar orqali doimiy monitoring qilish, shuningdek ssenariy va stress-sinovlarni amaliyotga tatbiq etish; (iii) korporativ treasury amaliyotlarini bosqichma-bosqich joriy etish Cooper (2004) tavsiya etganidek, pooling/netting, cash concentration, central treasury (in-house bank) mexanizmlari, bank APllari va ISO 20022 formatlari orqali real vaqt rejimidagi integratsiya, to'lovlar orkestratsiyasi va likvidlikni markazlashtirilgan boshqarish.

Mazkur yondashuv O'zbekiston sharoitida IFRSga o'tish, bank ekotizimida API va to'lov infratuzilmasining jadallashgan rivoji fonida korxonalarining pul oqimlari barqarorligini mustahkamlaydi, kapital aylanish tezligini oshiradi, foiz xarajatlarini optimallashtiradi va umumiy xatarbardoshlikni kuchaytiradi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik, ekonometrik modellashtirish hamda ekspert baholash usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Ilmiy abstraksiya usuli mavzuga oid nazariy tushunchalarni aniqlashtirish va ularni tizimlashtirish imkonini berdi; qiyosiy tahlil xorijiy va milliy tajribalarni solishtirish orqali samarali yondashuvlarni aniqlashga xizmat qildi; tarkibiy tahlil tadqiq etilayotgan jarayonlarni alohida elementlarga ajratib, ularning o'zaro bog'liqligini ochib berdi. Induksiya va deduksiya metodlari umumiy ilmiy xulosalarni aniq dalillarga asoslash hamda aksincha, amaliy holatlardan umumlashtirilgan nazariy qarashlarni shakllantirishda qo'llanildi. Iqtisodiy-statistik va ekonometrik yondashuvlar orqali statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, miqdoriy bog'liqliklar modellashtirildi, prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Ekspert baholash usuli esa tahlil qilingan natijalarni amaliyotdagi mutaxassislar fikrlari bilan boyitib, yakuniy tavsiyalarning ishonchligini oshirdi.

8 Almeida, H., Campello, M., & Weisbach, M.S. (2004). The Cash Flow Sensitivity of Cash. *Journal of Finance*, 59(4), 1777-1804.

9 Deloof, M. (2003). Does Working Capital Management Affect Profitability of Belgian Firms? *Journal of Business Finance & Accounting*, 30(3-4), 573-588.

10 Brealey, R.A., Myers, S.C., & Allen, F. (2020). *Principles of Corporate Finance* (13th ed.). McGraw-Hill.

11 Ковалёв, В.В., Стоянова, Е.С. (2017). *Финансовый менеджмент: теория и практика*. Москва: Проспект.

12 Современные методы анализа эффективности денежных потоков предприятий. *Экономический анализ: теория и практика* (2020).



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida 2022–2024-yillar davomida korxonalarda pul oqimlarini boshqarish samaradorligini baholash maqsadida kvartallar kesimida model ma'lumotlar tahlil qilindi. Hisob-kitoblar BHXS (IAS) 7 standartlari talablari asosida olib borilib, unda pul oqimlarining operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat bo'yicha tasnifi, ishchi kapital ko'rsatkichlari (DSO, DIO, DPO), naqd pul aylanish davri (CCC), operatsion pul oqimi (OCF), likvidlik "yostiqchasi" (days of buffer), foizlarni qoplash koeffitsiyenti (Interest Coverage) va Net Debt/EBITDA kabi asosiy mezonlar qo'llanildi.

Hisoblash formulalari:

- 1) DSO (kun) = Debitorlik qarzlari / (Sotuv / Kunlar soni)
- 2) DIO (kun) = Zaxiralar / (COGS / Kunlar soni)
- 3) DPO (kun) = Kreditorlik qarzlari / (COGS / Kunlar soni)
- 4) CCC (kun) = DSO + DIO - DPO
- 5) Likvidlik yostig'i (kun) = Naqd pul / (Kunlik operatsion chiqimlar)
- 6) Interest Coverage (marta) = EBITDA (yillik) / Foiz xarajatlari (yillik)
- 7) Net Debt/EBITDA (x) = (Qarz - Naqd pul)/EBITDA (yillik)
- 8) CFaR(95%) = $\mu_{OCF} - 1.645 \times \sigma_{OCF}$ (kvartal bo'yicha)

1-jadval. Asosiy ko'rsatkichlar (kvartallar kesimida)¹³

Period	Revenue (mlrd)	COGS (mlrd)	EBITDA (mlrd)	DSO (kun)	DIO (kun)	DPO (kun)	CCC (kun)	Liquidity buffer (kun)	Interest coverage (marta)	Net debt/ EBITDA (x)	OCF (mlrd)
2022Q1	453.97	305.37	80.76	64.3	70.3	45.4	89.2	15.9	6.92	1.18	63.81
2022Q2	467.08	301.25	85.40	63.8	66.3	43.8	86.3	16.9	7.41	1.12	73.37
2022Q3	491.55	316.24	89.84	60.9	65.7	47.2	79.4	16.2	7.60	0.99	81.75
2022Q4	516.73	336.35	96.26	61.4	66.1	47.3	80.2	16.9	8.51	0.96	49.08
2023Q1	520.85	334.44	102.95	58.8	65.4	47.8	76.4	17.4	9.62	0.87	84.14
2023Q2	539.04	350.47	109.54	57.8	63.4	50.3	70.9	18.7	10.10	0.80	98.47
2023Q3	571.72	362.92	115.24	56.1	61.7	51.7	66.1	17.7	11.08	0.75	94.20
2023Q4	583.41	365.26	121.87	57.7	60.1	52.5	65.3	18.5	11.63	0.68	85.31
2024Q1	591.70	382.25	124.44	54.1	57.3	51.3	60.1	17.9	13.05	0.67	113.59
2024Q2	617.98	387.63	130.17	51.5	56.9	52.8	55.5	18.0	13.83	0.64	118.24
2024Q3	628.11	392.62	136.62	52.4	55.8	54.5	53.7	19.5	14.99	0.61	117.68
2024Q4	646.27	393.57	145.26	48.5	56.3	56.2	48.6	19.9	17.26	19.9	17.26

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2022-yilning birinchi choragidan 2024-yil oxirigacha CCC (Cash Conversion Cycle) 89,2 kundan 48,6 kungacha qisqargan, bu esa aylanma kapital samaradorligining oshganini ko'rsatadi. Likvidlik yostig'i 15,9 kundan 19,9 kungacha oshib, korxonaning kutilmagan likvidlik yetishmovchiligi risklarini kamaytirgan. Interest coverage ko'rsatkichi 6,92 martadan 17,26 martagacha oshib, qarz xizmatini qoplash salohiyatining sezilarli yaxshilanganini bildiradi. Shu bilan birga, Net debt/EBITDA 1,18 dan 0,55 gacha pasayib, moliyaviy barqarorlik mustahkamlangan.

13 Muallif tomonidan BHXS (IAS) 7 talablari, Brealey, Myers & Allen (2020), Cooper (2004) va amaliy korporativ treasury boshqaruvi uslublari asosida tuzilgan hisob-kitoblar.

2-jadval. Yillik umumlashma (o'rtacha/yig'indi ko'rsatkichlar)¹⁴

YIL	Revenue (mlrd)	EBITDA (mlrd)	CCC (kun)	Liquidity buffer (kun)	Interest coverage (marta)	Net debt/EBITDA (x)	OCF (mlrd)
2022	1 929.33	352.26	83.78	16.47	7.61	1.06	268.01
2023	2 215.02	449.60	69.68	18.08	10.61	0.78	362.12
2024	2 484.06	536.49	54.48	18.82	14.78	0.62	486.66

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2022–2024-yillar davomida korxonada daromadlari (Revenue) har yili barqaror o'sib, 1 929,33 mlrd so'mdan 2 484,06 mlrd so'mgacha yetgan. EBITDA 52% ga oshib, foyda salohiyati mustahkamlangan. CCC 83,78 kundan 54,48 kungacha qisqargan bo'lib, bu aylanma kapital aylanishining tezlashganini bildiradi. Likvidlik yostig'i 16,47 kundan 18,82 kungacha ko'tarilib, kutilmagan naqd oqim risklarini kamaytirgan. Interest coverage 7,61 martadan 14,78 martagacha oshgan — bu qarz xizmat ko'rsatish barqarorligining sezilarli yaxshilanishi. Shu bilan birga, Net debt/EBITDA 1,06 dan 0,62 gacha pasayib, moliyaviy barqarorlik kuchaygan. OCF (operatsion pul oqimi) 81% ga o'sib, ichki moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirgan.

3-jadval. Ssenariy tahlili: OCFga ta'sir (kvartal)¹⁵

Ko'rsatkich	Qiymat (mlrd so'm)	Izoh
Baza (o'rtacha OCF, kvartal)	93.07	Mavjud 2022–2024-yillar ma'lumotlari asosida hisoblangan kvartal o'rtacha operatsion pul oqimi (OCF).
Stress: daromad –10%, foiz +300 b.p. (yakuniy OCF)	79.11	Daromadning 10% pasayishi va foiz xarajatlarining 300 baza punktga oshishi natijasida shakllangan ehtiyotkor ssenariy bo'yicha yakuniy OCF bahosi.
CFaR (95%) – nazariy hisob	51.33	Pul oqimlari riski bo'yicha nazariy hisob-kitob: $\mu_OCF - 1.645 \times \sigma_OCF$ (95% ishonch darajasida minimal kutiladigan OCF qiymati).

Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, bazaviy sharoitda korxonada kvartal kesimida o'rtacha 93,07 mlrd so'm OCF ishlab chiqarmoqda. Stress-test natijalari bo'yicha daromad pasayishi va foiz xarajatlari oshishida ham OCF 79,11 mlrd so'mdan pastga tushmaydi, bu esa moliyaviy barqarorlikni saqlash imkonini beradi. CFaR(95%) ko'rsatkichi esa korxonaning eng noqulay sharoitlarda ham naqd oqim yetarli bo'lish ehtimolini bildiradi.

4-jadval. Pooling/Netting ta'siri (yillik baho)¹⁶

Ko'rsatkich	Qiymat (mlrd so'm)	Izoh
Pooling/Nettinggacha	2.8	Overdraft mablag'lari bo'yicha foiz xarajatlari (30 mlrd × 20%) va bo'sh turgan mablag'lardan (Idle 40 mlrd × 8%) olingan daromad o'rtasidagi farq.
Pooling/Nettingdan keyin	-0.8	Pul oqimlarini markazlashgan boshqaruv (net +10 mlrd) orqali overdraftdan qochish va bo'sh mablag'larni depozitga joylashtirish (8%) natijasida moliyaviy natija.
Yillik tejash (yaxshilanish)	3.6	Overdraft xarajatlarining kamayishi va depozit daromadining oshishi hisobiga sof yillik foyda yaxshilanishi.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2022-yil 1-chorakdagi 89,2 kun ko'rsatkich 2024-yil oxiriga kelib 48,6 kun ga qisqargan. Bu korxonada aylanma kapital samaradorligining oshgani va pul oqimlari boshqaruvining


14 Muallif tomonidan BHXS (IAS) 7, Brealey, Myers & Allen (2020) Principles of Corporate Finance, Cooper (2004) Corporate Treasury and Cash Management hamda amaliy moliyaviy ko'rsatkichlar hisoblash metodologiyasi asosida tuzilgan.

15 Muallif tomonidan BHXS (IAS) 7, Jensen (1986), Opler va boshq. (1999) hamda Cooper (2004) metodologiyasi asosida hisob-kitob qilingan.

16 Muallif hisob-kitoblari, Cooper (2004) Corporate Treasury and Cash Management, BHXS (IAS) 7 talablari asosida.




yaxshilanganini anglatadi. Pasayish tendensiyasi, asosan, DSO (debitorlik qarzlarning undirilish muddati) va DIO (zaxiralarning aylanish muddati) kamayishi, hamda DPO (kreditorlik qarzlarning to'lov muddati) biroz uzayishi bilan izohlanadi. Natijada, korxonada naqd mablag'larni tezroq aylanmaga kiritib, moliyaviy likvidligini oshirishga erishgan.



1-rasm. Naqd pul aylanish davri (CCC) tendensiyasi (2022Q1–2024Q4)¹⁷.


2022-yil 1-chorakdagi 15,9 kun ko'rsatkichidan 2024-yil 4-chorakdagi 19,9 kun ga o'sishni aks ettirmoqda. Bu shuni anglatadiki, korxonada kutilmagan naqd mablag' yetishmovchiligi xavfiga qarshi likvid zaxira darajasini oshirib borgan. Ushbu o'sish moliyaviy barqarorlikni kuchaytiradi, ayniqsa, bozor beqarorligi yoki foiz stavkalari o'zgarishi davrida. Likvidlik "yostiqchasi" ko'rsatkichining oshishi, odatda, kesh-forecasting va operatsion chiqimlarni optimallashtirish natijasidir (2-rasm).



2-rasm. Likvidlik "yostiqchasi" (kunlarda) dinamikasi (2022Q1–2024Q4)¹⁸.


17 Muallif hisob-kitoblari, BHXS (IAS) 7 - Statement of Cash Flows, Shin & Soenen (1998), Deloof (2003).

18 Muallif hisob-kitoblari, BHXS (IAS) 7 - Statement of Cash Flows, Opler et al. (1999), Almeida et al. (2004).



3-rasm. Foizlarni qoplash koeffitsienti (yillik o'rtacha)¹⁹.

3-rasmdan ko'rinib turibdiki, foizlarni qoplash koeffitsienti 2022-yilda 7,6 martadan 2024-yilda 14,78 martagacha oshgan. Bu shuni anglatadiki, korxonaning EBITDA darajasi foiz xarajatlariga nisbatan ikki barobardan ko'proq oshgan, ya'ni qarz xizmat ko'rsatish imkoniyati sezilarli yaxshilangan. Ushbu o'sish rentabellikning ortishi va foiz xarajatlarini optimallashtirish bilan bog'liq bo'lib, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.



4-rasm. OCF taqsimoti va CFaR(95%) (kvartallar kesimida)²⁰.

Gistogrammadan ko'rinib turibdiki, OCF qiymatlari asosan 70–100 mlrd so'm va 110–130 mlrd so'm diapazonlarida jamlangan. Bu shuni anglatadiki, korxonalar kvartallar bo'yicha barqaror pul oqimlarini ta'minlab kelgan, lekin ayrim davrlarda (masalan, 50 mlrd so'm atrofida) qisqa muddatli pastlashlar kuzatilgan. Taqsimotning kengligi (spread) pul oqimlari mavsumiy yoki bozor sharoitlaridan kelib chiqib o'zgarishini ko'rsatadi. Ushbu tahlil CFaR (Cash Flow at Risk) hisob-kitoblari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Natijalar: CCC bosqichma-bosqich qisqargan (DSO va DIO kamayib, DPO ma'lum darajada uzaygan) bu aylanma kapital samaradorligining oshganini ko'rsatadi. Likvidlik "yostiqchasi" ko'rsatkichi oshib borib, kutilmagan naqd taqchilligi risklariga tayyorgarlikni kuchaytirdi. Foizlarni qoplash koeffitsientining yaxshilanishi qarz xizmat ko'rsatish barqarorligining ortganini bildiradi. OCF bo'yicha CFaR(95%) ijobiy diapazonda qolmoqda; bu

19 Muallif hisob-kitoblari, BHXS (IAS) 7 - Statement of Cash Flows, Brealey et al. (2020) Principles of Corporate Finance.

20 Muallif hisob-kitoblari, BHXS (IAS) 7 - Statement of Cash Flows, Almeida et al. (2004) The Cash Flow Sensitivity of Cash.



konservativ kesh-forecasting, zahira me'yorlari va ichki nazorat mexanizmlarining samarasi. Pooling/netting amaliyoti overdraft xarajatlarini kamaytirib, sof moliyaviy natijani yaxshilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2022–2024-yillar mobaynida korxonaning pul oqimlarini boshqarish samaradorligi izchil oshgan. Naqd pul aylanish davri (CCC) 89,2 kundan 48,6 kungacha qisqargan bo'lib, bu aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligining sezilarli darajada yaxshilanganini bildiradi. Likvidlik "yostiqchasi" ko'rsatkichining o'sishi (15,9 kundan 19,9 kungacha) kutilmagan naqd pul yetishmovchiligi risklarini kamaytirgan. Foizlarni qoplash koeffitsientining 6,92 martadan 17,26 martagacha ko'tarilishi qarz xizmat ko'rsatish barqarorligini oshirgan. Operatsion pul oqimi (OCF) bo'yicha CFaR(95%) ijobiy diapazonda bo'lib, pul oqimlarining xavfga chidamliligi yuqoriligini tasdiqlaydi. Pooling/netting amaliyoti esa yillik 3,6 mlrd so'mlik moliyaviy tejash imkonini yaratgan. Ushbu natijalar BHXS (IAS) 7 talablari asosida shakllantirilgan kesh-menejment siyosatining samarali ishlashini ko'rsatadi.

Naqd pul aylanish davrini yanada optimallashtirish DSO va DIO ko'rsatkichlarini kamaytirish orqali CCC ni 45 kun ostiga tushirish, bu aylanma kapitalning likvidligini yanada oshiradi.

Likvidlik zaxiralarini diversifikatsiya qilish naqd pul "yostiqchasini" nafaqat bank hisobvaraqlarida, balki yuqori likvid, qisqa muddatli moliyaviy instrumentlarda (trezoriya obligatsiyalari, depozit sertifikatlari) saqlash.

Foiz xarajatlarini kamaytirish mavjud pooling/netting amaliyotini kengaytirish va overdraft shartlarini qayta kelishish orqali qarz xizmat ko'rsatish xarajatlarini pasaytirish.

Kesh-forecasting tizimini avtomatlashtirish OCF prognozlarini real vaqt rejimida yangilab borish uchun ERP va BI tizimlarini integratsiya qilish.

Risklarni boshqarish siyosatini mustahkamlash CFaR va stress-testlarni muntazam o'tkazib borish, shu orqali bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga tezkor javob berish.

Xorijiy tajribani joriy etish ilg'or davlatlarda qo'llaniladigan "in-house banking" va "virtual accounts" kabi texnologiyalarni tatbiq etish orqali kesh-pul oqimlarini konsolidatsiya qilish va ichki moliyaviy xarajatlarni qisqartirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-sonli qarori (2019-yil 4-oktabr) "Investitsiyalarni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 25-dekabr. Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-60-son qarori (2022-yil 28-yanvar) "Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan yirik loyihalar to'g'risida". Lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4611-son qarori (2020-yil 24-fevral) "O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni (2017-yil 7-fevral) "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". Lex.uz.
7. OECD. (2024). Responsible Business Conduct for Sustainable Infrastructure in Uzbekistan. www.oecd.org.
8. IEA. (2022). Solar Energy Policy in Uzbekistan: A Roadmap. www.iea.org.
9. World Bank. (2023). Uzbekistan Infrastructure Governance Report. www.worldbank.org.
10. IMF. (2022). Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia.
11. Arxiv.org. (2022). Korean FDI in CIS countries: Motivations and Implications. <https://arxiv.org/abs/2212.13841>.
12. Brealey, R.A., Myers, S.C., & Allen, F. (2020). Principles of Corporate Finance (13th ed.). McGraw-Hill Education.
13. Jensen, M.C. (1986). Agency Costs of Free Cash Flow, Corporate Finance, and Takeovers. American Economic Review, 76(2), 323–329.
14. Opler, T., Pinkowitz, L., Stulz, R., & Williamson, R. (1999). The Determinants and Implications of Corporate Cash Holdings. Journal of Financial Economics, 52(1), 3–46.
15. Almeida, H., Campello, M., & Weisbach, M.S. (2004). The Cash Flow Sensitivity of Cash. Journal of Finance, 59(4), 1777–1804.
16. Maxmudov N.M., Avazov N.R. (2019). O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari. TDIU, Ilmiy maqola.
17. Raxmatov B.E. (2020). Investitsion faoliyatda xatarlarni baholash usullari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali.
18. Sobirov A.B. (2021). Davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari. TDIU ilmiy to'plami.
19. Inlibrary.uz. (2023). Investitsiya loyihalarini boshqarishdagi tizimli muammolar. <https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/85003>.
20. Usmonov M.R. (2022). Korxonalarda pul oqimlarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari. O'zbekiston banklari ilmiy-amaliy jurnali.



21. Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. <https://lex.uz>
22. OECD rasmiy veb sayti. <https://www.oecd.org>
23. IEA rasmiy sayti. <https://www.iea.org>
24. Jahon banki rasmiy portali. <https://www.worldbank.org>
25. Arxiv ilmiy maqolalar bazasi. <https://arxiv.org>
26. ResearchGate. <https://www.researchgate.net>
27. Inlibrary ilmiy maqolalar platformasi. <https://inlibrary.uz>
28. SDG Milliy portali. <https://sdgnu.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>